

**TEXNIKA FANLARINI O‘QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI
QO‘LLASHNING AFZALLIKLARI**

Yusupaliyev Ne‘matjon Adilovich
Andijon shahar 29-umumta’lim maktabi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bugungi kunda texnika fanlarini o‘qitishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llashning afzalliklari hamda shaxs omillarini hisobga olgan holda dars mashg‘ulotlarini muammoli ta’lim bilan o‘tkazish orqali talabalar o‘z ustida ishlashishi, ilmiy bilish metodlarini qo‘llay olishi, muammolarni yechish ko‘nikmasi ega bo‘lishi keltirilib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *ta’lim texnologiyasi, innovatsion texnologiya, muammoli ta’lim, o‘qituvchi va talaba, faoliyat, o‘qitish jarayoni*

Texnika inson faoliyatining sohasi sifatida qadimgi davrdan boshlab faylasuflarni qiziqtirib kelgan. Qadimgi Yunon va Rim, Uyg‘onish davri va yangi davr faylasuflari texnikani nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilishga harakat qilganlar, uning falsafiy ma’nosini ochib berish uchun anchagina faoliyat ko‘rsatganlar. Biroq, “texnika falsafasi” atamasi E.Kapning 1877-yilda Germaniyada chiqqan «Texnika falsafasi asoslari» kitobida ilk bor ishlatilgan. Texnika hozirgi sivilizatsiyaning butun borlig‘ida, undagi madaniyat tizimida o‘zgarish hosil qiladi. Mekroelektron revolyutsiyasi inson aqliy qobiliyatini ishga soladi, qudratini orttirib boradi. Texnologik yangilik jamiyatning sotsial tuzilishida ham o‘zgarish hosil qiladi. Shu jihatdan texnika fanlarini o‘qitish jarayonlariga jiddiy e’tibor qaratiladi.

Hozirgi davrda ro‘y berayotgan innovatsion jarayonlarda ta’lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o‘zlashtirgan, bu axborotlarni o‘zlari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar, bilim oluvchi talabalarimiz faoliyatini baholashdagi ularning erkin fikrlashga bo‘lgan intilishlarini hisobga olishimizga to‘g‘ri keladi.

Ta’lim berish jarayonida yuqori natijalarga erishish uchun uning maqsad va mazmunini to‘g‘ri tanlash hamda bu maqsadlarga erishish usullarini ya’ni ta’lim usullarini to‘g‘ri tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim usullari deganda pedagog va talabalar hamkorligida amalga oshiriladigan tartibga solingan va maqsadli yo‘naltirilgan yagona tizim tushuniladi. Mavjud ta’lim maqsadlari, pedagogik vositalar va ularning natijalari o‘rtasidagi munosabatlarni chuqur o‘rganish pedagogik nazariyaning muhim masalalaridan biri hisoblanadi.

Amaliyotdagi oddiy qoidaga ko‘ra, yangi bilimlarni berish nazariy darsning dastlabki 20 daqiqasida amalga oshirish, keyin esa bahsmunozara, kichik guruhlarda ishlash va boshqa shu kabi noan’anaviy usullarni amalga oshirib, o‘quvchilarning bilimlarini mustahkamlash kerak. Chunki o‘rganish jarayonining dastlabki 20 daqiqasi eng samarali

hisoblanib, talaba shu vaqt mobaynida ma'lumotlarni oson qabul qila oladi, 30 daqiqadan keyin esa o'rganishni davom ettirish motivatsiyasi tezda pasaya boshlaydi.

Texnika ta'lim yo'nalishlarida talabalarning huquqiy bilimlarini oshirishda yangi pedagogik metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Idrok qilish paytida qancha ko'p sezgi kanallaridan foydalanilsa, esda olib qolingani bilimlarning miqdori va sifati shunchalik yuqori bo'ladi. Agar bilimlar faqat «ma'ruza»lar orqali (passiv tinglash yo'lida) berilgan bo'lsa, unda 3 kundan so'ng ularning faqat 25%ni eslash mumkin xolos. Agar u ma'ruzalar o'qish (tinglash), namoyish va ko'rgazmali qilish (ko'rish, ushlab ko'rish va shu kabilar) orqali berilsa va shu to'g'risida bahslashilsa, unda 3 kundan so'ng 75%ini esga tushirish mumkin bo'ladi. Agar bilimlarni o'zlashtirish jarayonida bir nechta sezgi kanallari birgalikda ishga solinsa, ma'lumotlarning qisqa xotiradan uzoq xotiraga o'tish jarayoni tezlashadi, bu esa shubhasiz, bilishning asosi bo'lib hisoblanadi.

Ta'lim tizimida innovatsion texnologiyani eng asosiy negizi - bu o'qituvchi va talabani belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijada hamkorlikka erishishlari uchun tanlangan texnologiyalariga bog'liq ya'ni o'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda. Bu yondashuv o'quvchilarning egallagan nazariy bilimlarini tadbiq etish bilan bir qatorda ularning o'z-o'zlarini rag'batlantirish orqali bilim va ko'nikmalar yig'ishlariga sharoit yaratadi.

Shu o'rinda, muammoli vaziyatlarga ro'para qilish metodik jihatdan samarali usul sanaladi. Muammoli vaziyatlarning didaktik imkoniyatlari talabalarni o'rganilayotgan masala (mavzu, muammo) yuzasidan fikrlash, masala mohiyatini yorituvchi tarkibiy elementlar o'rtasidagi o'zaro birlik va aloqadorlikni anglash, muammoni hal qilish jarayoni yechim tizimi asosida masalani tahlil qilish, yechim borasida qarashlarni ilgari surish, ularning maqbulligini tekshirish, yechimni bayon qilish va uni himoya qilish kabi amaliy harakatlarni tashkil etishga majbur qiladi. Qolaversa, muammoli vaziyatlar yordamida talabalar o'z bilimlarini mustaqil tahlil qilish, o'quv-bilish faoliyatiga tanqidiy yondashish, o'rganilayotgan mavzu yuzasidan ijodiy fikrlarni ilgari surish kabi imkoniyatlarga ega bo'ladi. Shu sababli, bugungi kunda ta'lim tizimida muammoli ta'limdan foydalanish, muammoli ta'lim texnologiyalarini samarali qo'llashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Texnika va texnologiyalarga bog'liq barcha ta'lim muassasalarida, jumladan yonilg'i-moylash mahsulotlariga bog'liq bir necha fanlar o'qitilmoqda. Ushbu fanlar toifasiga kiruvchi "Transport vositalarida qo'llaniladigan ekspluatatsion materiallar", "Avtomobillarda ishlatiladigan ashyolar", "Neft mahsulotlarining olinishi" va "Gidravlika" kabi fanlarni o'qitish jarayonlarida davr talabiga monand ravishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish dolzarb masalalardan biridir.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, texnologiya talabalarda predmetni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishni, amaliy ko'nikmalarni, vaziyatni tahlil qilish va to'g'ri qaror qabul qilishga nisbatan ijodiy yondashish malakalarini rivojlantiradi, turli muammoli vaziyatlar va ularni hal qilish asosida ular tomonidan bilimlarning faol o'zlashtirilishi uchun imkoniyat yaratadi. Ta'lim tizimida zamonaviy texnologiyani eng asosiy negizi - bu o'qituvchi va talabani belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga erishishlari uchun

tanlangan texnologiyalariga bog‘liq, ya‘ni o‘qitish jarayonida maqsad bo‘yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo‘llaniladigan har bir ta‘lim texnologiyasi o‘qituvchi va talaba o‘rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, o‘quv jarayonida talabalar mustaqil fikrlay olsalar, ijodiy ishlay olsalar, o‘zlari xulosa qila olsalar, o‘zlariga guruh va ularga baho bera olsa, o‘qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, ana shu o‘qitish jarayonining asosi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. L.V.Golish «Zamonaviy ta‘lim texnologiyalari: mazmun, loyihalash-tirish va amalga oshirish» Ekspres qo‘llanma T. TESIS, 2001 yil.
2. B. Ziyomuxammedov, SH. Abdullaeva «Ilg‘or pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot» T. «Abu Ali Ibn Sino» 2001 yil.
3. N. Sayidahmedov «Yangi pedagogik texnologiyalari» –T.: «Moliya»2003y.
4. Khamidullaevna, A. Z., & Akhmatjanovich, M. M. I. (2021). Environmental Safety in use Flammable Lubricants. Middle European Scientific Bulletin, 19, 83-85
5. Sh. Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri.-Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022.-416 bet.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2019 yil 8 oktyabrdagi PF5847-son farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi.
7. Abduraimov Sh. S. “Kasb ta‘limi o‘qituvchilarini tayyorlash sifatini ta‘minlashda tarmoqlararo integratsiyaning pedagogik imkoniyatlarini takomillashtirish” mavzusidagi dissertatsiyasi. Toshkent.-2017. 4. Allen, D. E., Donham, R. S., & Bernhardt, S. A. (2011). Problem-Based Learning. New Directions for Teaching and Learning, 2011, 21-29. <https://doi.org/10.1002/tl.465>